

"Anor" hikoyasida Turobjon obrazining ichki kechinmalari

ToshDO 'TAU talabasi

Xushvaqtova Iroda

irodaxushvaqtova16@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasi tahlil qilinadi. Yozuvchi tomonidan hikoyada qahramonlar orqali o'sha davrdagi oddiy insonlarning kundalik turmush tarzidagi qiyinchilik va yetishmovchiliklar anor timsoli orqali yoritiladi. Bosh qahramon Turobjon yetishmovchilik sababli homilador ayoliga anor topib olib kela olmaganligi uchun ayoli bilan o'rtasidagi tushunmovchilik ochib beriladi. Oxir oqibatda qahramon qiyinchilik tufayli o'g'rilik qilishga ham qo'l urganlinligi taxmin noqilinadi.

Annotation. This thesis analyzes Abdulla Qahhor's short story "Anor" (The Pomegranate). Through the characters, the author reflects the daily hardships and deprivations of ordinary people of that time, symbolically represented by the image of the pomegranate. The story reveals the misunderstandings between the main character, Turobjon, and his wife, caused by poverty and need. Eventually, it is implied that the protagonist, driven by hardship, may have even resorted to theft. The story realistically portrays human emotions, family relationships, and the psychological struggles of the post-war period.

Kalit so'zlar: anor, sabr, jamiyat, qiyinchilik, oilaviy munosabatlar, kambag'alchilik, asal.

Keywords: pomegranate, patience, society, hardship, family relationship, poverty, honey.

Аннотация: В данной работе анализируется рассказ Абдуллы Каххара «Гранат». Через образы героев автор раскрывает бытовые трудности, лишения и психологические переживания простых людей того времени, символически выраженные через образ граната. Основное внимание уделено внутренним переживаниям Турабджона, его взаимоотношениям с женой и духовным состоянием на фоне бедности и социальной нужды. Рассказ показывает, что тяжелые жизненные условия могут привести человека к отчаянию и моральным испытаниям. Произведение реалистично отражает человеческие чувства, семейные отношения и психологическую атмосферу послевоенного периода.

Ключевые слова: гранат, терпение, общество, трудность, семейные отношения, бедность, мёд.

Kirish.

Har bir davr adabiyoti o'sha zamon hayoti va unda yashagan odamlarning kechinmalarini ko'rsatadi. O'zbek adabiyotida ham xalqning og'ir hayoti, urushdan keyingi yillarda boshidan kechirgan qiyinchiliklari, insoniy tuyg'ulari

haqida ko'plab asarlar yaratilgan. Abdulla Qahhor o'z asarlarida hayotdagi voqealarni real tarzda namoyon ettiradi. U oddiy xalqning quvonchi, iztirobi, oilaviy hayoti va jamiyatdagi muammolarni samimiy ifodalaydi. "Anor" hikoyasi ham shunday asarlardan biri bo'lib, unda insonlarning qashshoq hayoti, sabr-toqati va ruhiy holati yoritilgan. Bu hikoyada yozuvchi anor timsoli orqali o'sha davr hayotidagi og'irliklar, oilaviy muammolar va insoniy kechinmalarni ifodalagan. Asarda Turobjon obrazi orqali o'sha davr insonlarining ichki kechinmalari va hayotga bo'lgan munosabati ko'rsatiladi. Shu sababli, ushbu ishda Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasida qiyinchilik va insoniy kechinmalar qanday tasvirlangani haqida so'z yuritiladi.

Asosiy qism: Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining mashhur yozuvchisi hisoblanadi. Asosan u qisqa hikoyalar va romon janrlarida, realizm yo'nalishida ijod qilgan. Hikoyalarida hayotiy voqea-hodisalarni sodda tushunarli tarzda kitobxonga yetkazib beradi. "Anor" hikoyasida oddiy xalqning o'sha davrdagi qiyinchilikda, yo'qchilikdan qiynalganligi ochib berilgan. Yozuvchi qahramonlarning ichki-hissiyotlarini ochiq oydin tasvirlab beradi. Turobjonning ayoliga, "boshi qorong'u bo'l, evida bo'lda", deb aytgan gapi ayoliga alam qilib, o'pkasi to'lishigacha tasvirlagan Abdulla Qahhor ayolning ichki kechinmasini, hissiyotini aniq va ravshan ochib bergan. Buning negizida hali dunyoga kelmagan chaqaloq uchun, kambag'allik sababli ayoliga zarfa qilgani birgina shu gap orqali tasvirlangan bo'lishi mumkin. Eshikdan hovliqib kirgan Turobjon yaktagini yengini zulfingacha ilinib tirsagigacha yirtilganini va uni ayoliga tikish uchun uchun berganda hali beri tikish niyati yo'g'ligini bilib yana kiyayotganda kambag'alchilik... deb gapini davom ettirmaganda ayoli kambag'alchilik qursin deb shikoyat tarzida aytgan gapini, yozuvchi bu epizodda qahramonning hayotdagi moddiy qiyinchilikdan noroziligi, ojizligi va alamzadaligini tasvirlaydi. Turobjonning ichki kechinmalari ayoli bilan bo'lgan suhbatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ayoli bilan o'rtasidagi bahslar ham o'sha davr oilalarida tez-tez uchraydigan holatlardan biri. Asarda Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr aks ettirilgan. Bu davrdagi ocharchilik, insonlarning tirikchilik uchun kurashishlari bilan kechgan. Biz bilamizki, bu davrda faqat zodagonlargina to'q hayot kechirishgan. Turobjon xo'jayiniga sovg'a qilingan asalni ozroq so'rab olib keladi. Ayoliga tansiq narsa, xursand bo'larmikansan deb olib kelgandim, umringda necha marta asal yegansan, o'zim umrimda bir marta yeganman: Shokirxo'ja qandolatchi asal qiyom qildirayotganda qozoniga ammamning jo'jasi tushib ketgandi, shu jo'jani yalaganman... deydi. U hattoki asalni o'zini yemagan, jo'jada qolgan asalni yalagan. Bu orqali Abdulla Qahhor asalning qimmatligini, oddiy xalq buni sotib olib yeyishga imkoni yo'qligini ifodalaydi. Turobjonning ayoliga anor olib bermaganmanmi, deganda ayoli birdan boshini burib yo'q javobini olganda,

Tolibjonning ko'zi tinib, boshi g'ovlab ketib, o'tgan bozor kuni anorni o'ynashning olib kelganmidi degan savoliga ayoli o'ynashim olib keldi deb atgan gapi Tolibjonning g'ururiga og'ir botadi. Bu sahnada yozuvchi oilaviy munosabatlardagi g'urur, alam, pushaymonlik holatini ko'rsatadi. Bu gapni ko'tarolmagan Tolibjon uydan chiqib ketadi. Xotini uzoq yig'lab, eriga gapirgan gaplaridan pushaymon bo'lib, o'zini qarg'ar edi. Bu sahnada Abdulla Qahhor ayolning eridan xavotir olishi, unga bo'lgan mehr- muhabbatini ayolni istirob chekishi orqali ifodalaydi. Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib, uyni o'rtasiga tashlaganda bir choyshab anor har tomonga to'kilib ketadi, uning oqarib ketgan rangini ko'rgan ayoli vahimaga tushadi. Turobjon o'tirib peshonasini ushlaydi, ayoli oldiga kelib qayoqqa bordingiz, nima qildingiz degan savoliga javob ham bermaydi va vujudi titraydi. Hikoya shu tarzda tugaydi. Nega qahramon ayolini savoliga javob bermadi, nega uning rangi oqarib ketdi, u anorni qayerdan olib keldi degan savollar o'quvchini fikrlashga, tahlil qilishga undaydi. Ehtimol Turobjon anorni o'g'irlab kelgandir, yoki kimnidir o'ldirishga majbur bo'lgandir degan xulosani har kim o'zi tafakkur qiladi. Yozuvchi buni ochiq oydin tasvirlamaydi. Chunki asarning maqsadi qiyinchilik va insoniy kechinmalarni ko'rsatishdir.

Adabiyotshunos olimlar Abdulla Qahhor ijodini o'zbek realizmining yetuk namunasi sifatida baholaydilar. Jumladan, Ozod Sharafiddinov yozuvchining hikoyalarida badiiy detal muhim estetik va mazmuniy vazifa bajarishini ta'kidlab, "Anor" hikoyasida anor timsoli orqali oddiy insonlarning ichki iztirobi, ijtimoiy tengsizlik va hayotiy qiyinchiliklar ramziy tarzda ifodalanganini qayd etadi [Sharafiddinov, 1981]. Olimning fikricha, Qahhor kichik voqea va oddiy predmet orqali katta hayotiy fojiani ochib berishga muvaffaq bo'lgan.

Shuningdek, adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov Abdulla Qahhor nasrini psixologik realizm nuqtayi nazaridan tahlil qilib, "Anor" hikoyasida tashqi voqealardan ko'ra qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblari yetakchi o'rin egallashini alohida ta'kidlaydi [Qo'shjonov, 1973].

Uning fikricha, Turobjon obrazi orqali yozuvchi urushdan keyingi davr odamlarining ma'naviy bosimi, qashshoqlik va ruhiy tanglik holatini chuqur ochib beradi.

Xulosa.

Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasi o'zbek adabiyotidagi eng ta'sirli asarlardan biridir. Turobjon va uning xotini obrazlari orqali o'sha davr hayotining og'ir sharoiti, odamlarning ichki kechinmalari hamda ruhiy iztiroblari yoritilgan. Asarda anor timsoli oddiy meva emas, balki hayot sinovlari, sabr va umid ramzi sifatida talqin qilingan. Yozuvchi insonning moddiy va ma'naviy qiyinchilikdan aziyat chekishini chuqur ifodalab, o'quvchini o'ylantiradigan ijtimoiy va axloqiy masalalarni ko'taradi.

Shunday qilib, “Anor” hikoyasi insoniy tuyg‘ular, sabr-toqat va hayot sinovlariga bardosh berish g‘oyasini o‘zida mujassam etgan asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qahhor, Abdulla. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989.
2. Karimov, N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.
3. Jo‘rayev, S. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Internet manbalari: www.ziyouz.com, www.kitob.uz
5. MAMARASULOVA, GA, and MA MAMARASULOVA. "The History of the Emergence of Orientalism in Western Literature." *HISTORY* 6.9 (2020).
6. Sharafiddinov, O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981.
7. Qo‘shjonov, M. Abdulla Qahhor mahorati. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1973.
8. Asadov, M. (2025). “Homo poetikus kontsepsiyasi: Navoiy va Rumi.” *Conferences*, 1(1). [taxmin: konferensiya jurnali, yil 2025].